
“Jadidlar izidan” respublika tanlovi g‘oliblari aniqlandi

Bugun poytaxtimizdagi “Turkiston” san’at saroyida “Jadidlar izidan” respublika tanlovi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu tanlovda ishtirok etgan Qo’shtepa farzandi, 20-maktab o‘quvchisi Rohataliyeva Dilnura Alisher qizi g‘oliblar safidan joy oldi. 9-10-sinf o‘quvchilari o‘rtasida g‘olib deb topilgan Dilnura barcha g‘oliblar qatori Germaniyaga ta’lim sayohatini qo‘lga kiritdi.

Dilnura Rohataliyevaning g‘alabasi bilan avvalo uni, qolaversa barcha yaqinlari va maktab jamoasini tabriklaymiz. Yutuqlar bardavom bo‘lsin!

2024-12-20 13:05:37